

## BOSH MUHARRIR

**Shavkat Safarovich Sharipov –**  
pedagogika f. d., professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI

**Usmonjon Qosimov –** fil. f. d.  
**G'ayrat O'rroqboyevich Qodirov –**  
biologiya f. n., dotsent

## MAS'UL KOTIB

**Farrux Aqchayev –** tarix  
f. b. f. d., dotsent

## TARJIMONLAR:

**Namoz Karimov,**  
**Eldar Hasanov**  
(rus til)

**Kamoliddin Normurodov**  
(ingliz til)

## SAHIFALOVCHILAR

**Guljaxan Kadirova**  
**Adolat Uskinboyeva**

## TEXNIK MUHARRIR:

**Murodulla Jo'rayev –** filologiya  
f. b. f. d., (PhD)

## NAVBATCHI MUHARRIR:

**Feruza Jumayeva –** filologiya

f. b. f. d., dotsent

## Jurnal andozasi Raqamli ta'lif texnologiyalari markazida

**Rasuljon Meliquziyev**

tomonidan tayyorlandi

**Muassis** - Jizzax davlat  
pedagogika instituti

Jurnal yilda 4 marta  
(har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalilanigan ko'chirma  
va ma'lumotlar aniqligi uchun  
mualiflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda,  
manba qayd etilishi shart.

## JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

Anatoliy Sagdullayev – tarix f. d., akademik

Komiljon Tojiboyev – biologiya f. d., akademik

Jak Miklovik – INSHEA universiteti professori (Fransiya)

Vasiliy Kochurko – Baranovich DU professori, texnika f. d.  
(Belorussiya)

Gulsem Lekerova – psixologiya f.d., professor (Janub. Qozog'iston)

Furqat Jo'raqulov – siyosiy f. d., dotsent

Botir To'xtamishev – texnika f.n., dotsent

Sarvar Nazarqosimov – sotsiologiya f. b. f. d.

Baxtiyor To'rayev – falsafa f.d., professor

Xolbo'ta Turaqulov-texnika f.d., professor

Baxti Ochilova - falsafa f.d., professor

Qozoqboy Yo'ldoshev – pedagogika f. d., professor

Umrzoq Jumanazarov – filologiya f. d., professor

Abdug'afur Mamatov - filologiya f. d., professor

Rahmatulla Bekmirzayev – fizika-matematika f. d., professor

Oybek Axmedov – filologiya f.d., professor O'zDJTU

Faniya Axmedshina – tarix f. d., professor

Hamid Meliyev – pedagogika f. n., professor

Xudoybergan Mavlono – biologiya f. d., dotsent

Qo'chqor Hakimov – geografiya f. n., professor v.b.

Ilyos Islamov – tarix f. d., dotsent

Rustam Abdurasulov – psixologiya f. d., dotsent

Zuxra Yaxshiyeva – kimyo f. d., dotsent

Muxtorqul Pardaev - tarix f. n., dotsent

Rabbim Yusupov – texnika f. n., dotsent

Oleg Kim – filologiya f. n., dotsent

Kamoliddin Zoirov – pedagogika f.n., dotsent

Abdivali Shamshiyev – iqtisod f. n., dotsent

Sunnatullo Soipov – filologiya f. n.

Yulduz Karimova – filologiya f. n., dotsent.

Omon Isarov – filologiya f. n., dotsent.

Sherali Abduraimov – pedagogika f. b. f. d., dotsent

Furqat Axmedov - pedagogika f.n., dotsent

To'ychi Axmedov – tarix f.b.f.d., dotsent

Akbar Saitqosimov – falsafa f. d., professor v.b.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya,  
falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrdagi 260/6-son bayonnomasi)  
tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042  
raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131**

**MANZIL:** 130100, Jizzax shahri,  
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino  
**TELEFON:** (99872) 226 02 93,  
(99897) 644 84 44  
**FAKS:** (99872) 226 46 56

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MATBAA BO'LIMI**

Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy  
2021-yil 25- dekabr kuni bosmaxonaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: \_\_\_\_\_  
Nashr adadi: 100

# MUNDARIJA

## TAHRIRIYAT MINBARI

<b>Sh.S.Sharipov</b> Sharaflı kasb mas'uliyati haqida o'ylar.....	3
<b>B.To'xtamishev</b> Oliy ta'limdi tub burilishi: elektron ta'lim imkoniyatlari.....	6

## TAQVIM 21-OKTABR – O'ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

<b>U.Qosimov, S.Ahmedov</b> Til-millat qalbi, ruhiyat va ma'naviyat ko'zgusi.....	10
<b>A.Mamatov</b> Frazeologizmlarning antroposentrik lингvomadaniy tадқиқи.....	13

## PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

<b>A.X.Kiyomov</b> Bo'lajak texnologik ta'lim pedagoglarining kompetentligini shakllantirish tizimi.....	17
<b>D.N.Mamatov</b> Oliy ta'lim muassasasi va korxona o'tasidagi hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	21
<b>L.R.Zaripov, S.E.Zaripova</b> Bo'lajak texnologiya o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligida integrativ-modulli o'qitish asoslari .....	25
<b>S.Ubaydullayev, I.Y.Azamatov</b> Texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari .....	29
<b>A.Ripidjanova</b> Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalarini pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish.....	32
<b>M.Ё.Зоирова, З.З.Яхшиева</b> Развитие креативного мышления у детей дошкольного возраста посредством химических опытов .....	35
<b>G.X.Xasanova</b> O'qituvchi va talaba muloqotida noverbal vositalarning qo'llanilishi .....	39
<b>B.N.Husanov, B.M.Mirzayev</b> Talabalarga badiy qadriyatlarni o'gartishda mediatallimining falsafiy va metodologik asoslari .....	45
<b>U.U.Turamuratov</b> Oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim tiziminining joriy etilishi .....	48
<b>K.Zoyirov</b> Bo'lajak mutaxassislarni ijodiy-grafik faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari .....	51

## AMALIY FANLAR

<b>F.Q.Axmedov, A.I.Olimov</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini o'qitishda mobil ilovalarni qo'llash metodikasi .....	54
<b>V.Sh.Raximov</b> Sport-sog'lomlashtirish turizmi kadrlarini tayyorlashning pedagogik tizimi tahlili .....	57
<b>M.Sh.Yaxshiyeva</b> Sog'lomlashtiruvchi aerobikaning talaba qizlar jismoniy tayyorligiga ta'siri .....	63
<b>U.Q.Utanov, S.Sh.Urinova</b> Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning ahamiyati .....	67
<b>B.T.Aliyev, S.S.Boltazoda</b> O'zbekistonda dirijorlik san'atining rivojlanishi .....	71

## IJTIMOIY FANLAR

<b>Б.Очилова</b> Вопросы традиций и ценностей в философии .....	75
<b>A.A.Ashirov</b> O'zbek oilasida suv bilan bog'liq madaniyat .....	80
<b>S.U.Xodjaniyazov</b> Xorazm tasavvuf mutafakkirlarining g'oyalari asosida ma'naviy- axloqiy tarbiyani takomillashtirish .....	85
<b>R.R.Nurqulova, L.S.Burxonov</b> Abdullaxon II ning Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni .....	89
<b>Z.R.Isaqova</b> Haqiqatning falsafiy-irfoniy interpretatsiyasi .....	92
<b>T.O.Norov</b> Alisher Navoiy ontologik qarashlarida nomoddiyi olam tahlili .....	96
<b>U.S.Musayev</b> Yoshlarda yot g'oyalarga qarshi kurashda mustahkam e'tiqodni shakllantirish vazifalari .....	100
<b>T.B.Nazarov</b> Talabalarning ma'naviy immunitetini oshirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalananish zarurati .....	103
<b>R.Abyakimova</b> Oliy ta'lim muassasalarida talaba-qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash .....	106
<b>Q.O.Alimova</b> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Sog'lom bola" asarining tarbiyaviy ahamiyati .....	109
<b>B.N.Omonov</b> Ekologik vaziyat globalashuvining ijtimoiy-falsafiy mohiyati .....	113

## FILOLOGIYA FANLARI

<b>A.Musayev</b> Kollokvializmlarning paydo bo'lishida polisemiya va ko'chimlarning o'rni .....	118
<b>N.K.Buriyeva</b> The morality and the impact of society on the lives of orphans in 'Oliver twist' by Charles Dickens .....	120
<b>F.U.Jumayeva</b> Takroriy so'zlar va polisemiya .....	125
<b>T.O.Kuchqorov</b> Sak-massaget eposi va To'rabekxonim haqidagi Xorazm rivoyatlari syujetining genezisi .....	130
<b>Sh.I.Siddiqova</b> Ko'chirma gap sintaksisi .....	133
<b>D.A.Salimova</b> Oydin Hojiyeva she'riyatida tavsifiy lirika namunalari .....	137
<b>S.E.Jo'rayeva</b> Shukuriyning forsiy merozi .....	140
<b>M.Y.Jo'rayeva</b> Evrilish motivi haqida ba'zi qaydlar .....	143
<b>J.N.Sagidullayeva, G.I.Zinatdinova</b> Lirik va epik xronotopning o'ziga xos xususiyatlari .....	146
<b>N.M.Shamurodova</b> O'zbek va ingliz tillarida sabab ergash gapli qo'shma gaplar .....	149
<b>M.Mirsoatova</b> O'zbek hujatli filmlari tarixi xususida .....	152

## TABIYYA VA ANIQ FANLAR

<b>R.N.Bekmirzayev, B.Sultonov, O.Sh.Eshluxtarova</b> Fizika fanini o'qitishda ekologik tarbiya berish .....	155
<b>M.Barakayev, A.Shamshiyev, M.Barakayeva</b> Maktab o'quvchilariga kombinatorik masalalar yechishni o'rgatish metodikasi .....	159
<b>S.S.Aliqulov</b> Bo'lajak fizika o'qituvchisinining tajriba bajarish kompetentligini rivojlantirish tamoyillari .....	164
<b>A.A.Qarshiyev</b> Loyiha metodi o'quvchilarida axborot kompetentligini shakllantirishning istiqbolli yo'naliishi sifatida .....	168
<b>Қ.Азимов</b> Применение мультивариантных исследовательских методов в решение некоторых уравнений алгебры и задач геометрии .....	173

## YOSH TADQIQOTCHILAR

<b>D.A.Egamqulova</b> Tarixiy dunyoqarash va shaxs ma'naviy qiyofasi .....	180
<b>S.Y.Djasanova</b> Xotin-qizlar ijtimoiy faoliyigini oshirishda ijtimoiy muhit va mahallaning o'rni .....	182
<b>Q.Q.Razzoqov</b> Chishtiya tariqati va tasavvuf ta'limotida axloqiy- tarbiyaviy munosabatlar .....	187
<b>З.Ш.Яхшиева</b> Формирование компетентности при лингвокультурной самоидентификации .....	191
<b>A.Q.Ibragimov</b> O'zbekistonda ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishning innovatsion omillari .....	195
<b>A.Hakimov</b> Jamiyatda fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirishning ijtimoiy mexanizmlari .....	198
<b>Ф.И.Даминова</b> Вклад Николая Алексеевича Некрасова в русскую литературу .....	202
<b>Л.Р.Бекмирзаева</b> Идейная совокупность произведений Чингиза Айтматова "Плаха", "Белый карабль" и Шойима Бутаева "Крепость луны" ("Укреплённый месяц") .....	205
<b>G.Esirgapova</b> Abdulla Qahhor ijodining tarjimadagi hissasi .....	209
<b>D.N.Raxmatova</b> Ma'rifatga chorlagan ma'rifatparvar .....	213
<b>D.Azimova</b> "Jannatga yo'l" dostonida davr va shoir shaxsi muammosi talqini .....	218

# HAQIQATNING FALSAFIY- IRFONIY INTERPRETATSIYASI

*Zamiraxon Ruhiddinovna Isaqova – f.f.n.dotsent, Namangan davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Maqola haqiqat muammosining falsafiy-irfoniy talqiniga bag'ishlangan bo'llib, haqiqatning mazmun-mohiyati, darajalari, anglash usullari manbalar asosida ochib berilgan.

**Аннотация:** Статья посвящена философско-мистической интерпретации проблемы истины, на основе источников раскрываются сущность, уровни, способы понимания истины.

**Abstract:** The article is devoted to the philosophical and mystical interpretation of the problem of truth, reveals the essence, levels, ways of understanding truth based on sources.

**Kalit so'zlar:** irfon, orif, ilm, bilish, ma'rifikat, haqiqat, bilish nazariyasi, qalb, hol, maqom, ishq, hayrat.

**Ключевые слова:** ирфан, ариф, илм, илм, познание, просветление, правда, теория познания, сердце, состояние, статус, любовь, чудо.

**Keywords:** irfan, arif, ilm,ilm, knowledge, enlightenment, truth, theory of knowledge, heart, state, status, love, miracle.

Ilm o'rganishning sistematik iyerarxiyasi bo'llib, birinchisi, inson idroki bilan o'zlashtiriladigan ilmdir. Bu ilm umum (omma)ga xosdir. Bu shariat ilmidir. Ikkinchisi, inson qalbi bilan o'zlashtiriladigan ilm bo'llib, Allohning o'zitanlagan bandalariga lutf-in'omidir. Bu ma'rifikat ilmidir. Uchinchisi, orif va Alloh orasidagi ilm bo'llib, ularning siri bashariy idrokdan ustun bolgani uchun insonlarga oshkor etilmagan, faqat Alloh Rasulining xabari bo'lgan. Bu haqiqat ilmidir.

Haqiqat tafakkurning biror narsa yoki hodisaga nisbatan fajsafiy-gnoseologik tavsifi bolib, u muayyan bilimning ob'yektiv reallikka mos kelishi bilan belgilanadi. Haqiqat ikki taraflama o'rganiladi: birinchisi, insonning ratsional va irratsional bilimlari orqali, ya'ni haqiqat masalasini ilmiy hal etishning yagona yo'li inson bilimlari bilan ob'yektiv olamdagи real narsa-hodisalar, ularning sifat va xususiyati o'rtasidagi munosabatning oxhashligi bilan izohlanadi.

Ikkinchisi, botiniy bilish, ya'ni Haqni anglash va ilohiy tajalliyga yetish orqali. Olloohni bilish uchun ikkinchi usul muhim va bu yo'lda ilmdan ko'ra shavq, jazba, ilhom, ishq va hayrat asosiy fundamental tamoyillardir.

Haqiqat konsepsiyasini ilk bor qadimgi yunon faylasufi Arastu ilgari surib, haqiqatni "mulohazalar va amaldagi holat (borni bor va yo'qni yo'q deyish) o'rtasidagi muvofiqlik"<sup>1</sup>- deb ta'riflagan. Aflatun haqiqatni "g'oyalar dunyosi"ga mos keluvchi

g'ayritabiiy mustaqil ideal mohiyat sifatida tushungan, inson bilimi jonning shu g'oyalar dunyosi bilan mushtarakligi darajasidagina haqiqiy deb hisoblagan.

Foma Akvinskiy haqiqatning aqlda mavjud bo'lishi, har bir narsa o'zi bog'liq bo'lgan aqlga munosabati darajasida haqiqiy deb nomlanishini e'tirof etgan. V.F.Gegel haqiqatni sof tafakkur sohasida bilimlarning dialektik shakllanish jarayoni sifatida anglagan: "Hamma gap haqiqiy narsani substansiya sifatida emas, balki shuningdek sub'yeqt sifatida", ya'ni tafakkur faoliyati sifatida ham tushunish va ifodalashda<sup>2</sup>.

Buddaviylikda haqiqat uni anglash holatiga amalda erishish (nirvana) bilan bog'lansa, daosizmda ifoda etilgan haqiqat yo'q, u haqqoniyat lahzasi bilan aloqani uzgan. Hinduiylikda haqiqat ko'pqirrali, uni yaxlit ifodalab bo'lmaydi. Haqiqat anglashning butun, yaxlit tajribasi orqali yuzaga chiqadi. Nasroniylikda haqiqat va u orqali erishiladigan abadiy baxt-saodat (gedonizm), farog'at yo'li (evdemonizm), yolg'on va u orqali boriladigan abadiy uqubat va yo'qlik yo'li mavjud. Islomda haqiqat Allohdir. Qur'on va hadis foni yunyoda unga muvofiq yashash boqiy dunyodagi jannatga olib boruvchi yo'ldir.

Irfon falsafasida ilm deganda Haq, haqiqat deganda Alloh tushuniladi, chunki Haq Allohning ismlaridan biridir. Qur'onda "Bunga sabab Alloh Haq ekani va Uning O'zi o'liklarga hayot berishi hamda U hamma

<sup>1</sup> Аристотель. Сочинения в 4 т. – М.: Наука, 1975, т.1. 141-бет.

<sup>2</sup> Гегель. Феноменология духа. – М.: Наука, 1994. 196-бет.

narsaga qodir ekanligidir”<sup>3</sup>.

Abu Rayhon Beruniy haqiqatni bilimning voqelikka muvofiqligi deb hisoblagan bo’lsa, Abu Nasr Forobiy fikricha, haqiqatni bilish aqlning etukligiga bog’liq, bu aql inson qalbidadir, uning kamolotiga “faol aql”ga qo’shilishi orqali erishiladi. “Faol aql”da borliqning eng oliy darajasi bo’lgan Birinchi sabab (Alloh)dan boshlab to oxirgi haqiqatning barcha shakllari mavjud. Haqiqat bitta, shu bois falsafa ham bir nechta bo’lishi mumkin emas<sup>4</sup>. Abu Nasr Forobiy haqiqatning birligiga ishongan va falsafani haqiqatning birdan bir ifodasi deb hisoblagan. Alisher Navoiyning “Lison uttayr” dostonidagi “Faqrus fano vodiysining adosi” bobida parvonalar majmu’i sham haqiqati sharhida<sup>5</sup> haqiqatga yetish darajalari muxtasar bayon etilgan.

Haqiqat ilmi “Allohnani aniq-ravshan ko’rish” bo’lib, bu holat insoniyatning eng buyuk kamolotidir. Irfon ahli turli toifa va tabaqaga tegishli bo’lsa ham, ularni birlashtirgan yagona kuch ilohiy haqiqat yo’li edi.

Sharqda tafakkur uslubi, bilimlarni ifodalash va o’zlashtirishning nozik mexanizmlari va shakllari, bilim va haqiqatga eltuvchi yo’lni yorituvchi o’z strategiyasi mavjudki, Sharq tafakkur uslubini sharqona amaliyat va tajribadan olingan sharqona usul va uslub yordamida tushunish va ich (qalb ko’zi) dan anglash mumkin.

Irfon ilmi orif uchun parametrlari tabiiy va real ilohiy impuls (turtki, to’lqin, kuch)dir. Orif ashyolarning mohiyatiga boshqalarning nazari bilan qaray oladi, ya’ni bilimlarning sub’yektlararo ekanini ta’minlash, ashyoning yashirin mohiyatini anglash, birlik aro ko’plik, “juz”da “kull”ni ko’ra olishdek universal va transental bilimlarni shakllantiradi.

Ilohiy kuchning manbai doimiy muhabbat oqimi va Allohga sadoqat (bunda intellektual tajriba bilan bog’liq bo’lmagan ongning oliy darajasi (g’aybiy, botiniy) hamda haqiqatga erishishning nostandart usul (fahm, farosat, zikr, hol, samo’, chilla)lari nazarda tutiladi)dir. Haqiqatni anglashning

ilk bosqichi yorishish, nurlanish sifatida namoyon bo’ladi.

Har bir orifning haqiqatni bilishi o’ziga xos va takrorlanmas, hattoki aynan bir masala yuzasidan izotrop (bir xil) e’tiqodga ega bo’lgan, har bir orifning maqom va darajasi, maslagi individual, noyob va betakror dunyoqarashi in’ikosidir. Ular orasida oddiy insonlar tafakkur darajasidan tashqarida bo’lgan, faqat xos kishilar anglay oladigan ilohiy bilim egalari ham bo’lib, ashyolarning mohiyatini “qalb ko’zi” bilan ko’rganlar, hech kim ilg’ay olmagan tovushlarni eshitganlar, kishilarning ko’nglida kechayotgan izzirob, g’alayon, voqe-a-hodisalarini xuddi o’ngida sodir bo’lgandek so’zlab bergenlar. Buning sababi orifning so’zi Qur’on oyatlari va hadislarning sharhi ekanligidaki, ular “Haqiqat ko’zgusi” deb ulug’langan. Bu holatlar oddiy odamlar nazarida bo’lishi mumkin bo’lmagan va aql bovar qilmaydigan yoxud fenomenal hodisa sifatida qabul qilingan. “Haq qarshisida xolis barcha narsasini tark qilmagan orifga borliqning haqiqati hosil bo’lmaydi”.

Zunnun Misriy birinchilardan bo’lib haqiqat haqida so’z aytgan. Alisher Navoiy bu haqda “avval kishikim, ishoratni iboratqa kelturdi va tariyqdin so’z aytди, ul erdi” deb qayd etgan. Orif “xos” deganda tasavvuf ilmidan xabardor kishilarni, “om” (xalq) deganda esa oddiy kishilarni nazarda tutgan. U zotning shariat ilmi haqidagi so’zlarini “xos” va “om” birday qabul qilgan bo’lsa, uning haqiqat (tavakkul, muomalat va muhabbat ilmi) ilmi haqidagi so’zlarini faqat “xos”lar qabul qilgan. Zunnun Misriyning haqiqat ilmi haqidagi so’zlarini esa “xos”lar ham anglamay inkor qilishgan, chunki bu ilm “elning ilmu aqli toqatidin tashqari” bo’lgan. Abusaid Abulxayr “Haqiqat barcha narsalarning ilmda zohir bo’lishi, ilm barcha narsalarning haqiqatga aylanishi” deydi.

Abdulloh Ansoriy haqiqat va bilish borasida o’z qarashlarini bayon qilib, bilishni bir necha turlarini ko’rsatgan: isbotlashga asoslangan bilish oddiy kishilarga xos; dalillarga asoslangan bilish ilm ahliga xos; har ikki bilishning oraliq bosqichi

<sup>3</sup> Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсири муаллифи А.Мансур. Масъул муҳаррир: З.Хусниддинов. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети нашириёти, 2004. Ҳаж сураси, б-оят.

<sup>4</sup> Ҳотамий С.М. Ислом тафаккур тарихидан. – Т.: Минҳож, 2003. 126-бет

<sup>5</sup> Алишер Навоий. Лисон ут-тайр / Тузувчи Нодир Раҳмонов. Сўёбози муаллифи, изоҳ ва лугатлар тузувчиси Ваҳоб Раҳмонов. – Т.: Фағур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 1991. 29, 159, 299, 420-бетлар.

imkon bermaydi<sup>11</sup>.

Haqiqatni bilishni qiyinligini anglashning o'zi ham bilishdir, haqiqatni anglash va idrok etishga ko'ra, irfon ahlini shartli ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh (Junayd Bag'dodiy, Ibn Arabiy, Ibn Foriz) haqiqatni ilohiy go'zallik zuhur qilgan "tajalliy" deb talqin etsalar, ikkinchisi (Mansur Halloj, Boyazid Bistomiy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi, Yunus Emro) haqiqatni ruhiyatlaridagi hissiyot, kechinmalar orqali mushohada qilganlar.

Birinchi guruhga Alloh jamoli Mutlaq bo'lib tajalliy etsa, ikkinchi guruh vakillarining mushohadasida ruhiy tamoyil ustun bo'lganligi bois, ularning ruhiy salohiyati va imkoniyati taraqqiy topgan. Ularning ko'nglida dard, iztirob, shavq, ishq nash'asi hukmronlik qilish bilan bir qatorda, qalbida doimiy bir azob, hol va tuyg'usida to'xtovsiz o'zgarish ro'y bergan. Buni ilohiy sirlar mushohadasida, ya'ni orifning o'z botinida yuz ochgan ilohiy go'zallikdan zavqlanish va Uning sirlarini kashf etgani sari ilohiy ishqqa taslim bo'lish holatida idrok qilish mumkin.

Haqiqatning irfoniy interpretatsiyasi (talqini) dan anglashiladigan yakuniy maqsad barqaror ongdan boshlangan va ongning eng oliy sarhadini qamrab olgan ongni inson va uning Alloh va "men"ligi bilan bog'liq mohiyatni transmutatsiyalash (boshqa to'zon energiyasiga aylantirish) dir. Mushohada haqiqatining tavisci quyidagicha: orifning nafsdan ozod bo'lgan qalbi ishq bilan tozaradi va yuksak ruhoni, akmeologik darajaga ko'tariladiki, natijada ilohiy olamni bilishning darchasi ochiladi va o'n sakkiz olamning shakl-shamoyili namoyon bo'ladi: Agar nafsindan ozod bo'lsang, Allohdan o'zga hamma narsadan ozod bo'lasan<sup>12</sup>.

Har doim kelajak avlodlar, taraqqiyot, insoniyat fikratini olg'a siljitim uchun ilohiy va dunyoviy haqiqat, kreatsional mohiyatni izlash, kashf etish ehtiyoji bo'lgan. Bu vazifa bashariyat tomonidan "buyuk siymo" deb tan olingen orif va valiy zotlarga nasib

etganki, hamma inson ham o'zida oriflik sifatini namoyon qila olmaydi, toki hayot bor ekan, irfon sohiblari kishilarni e'tiqod asosida ish ko'rishda, insoniyatni Haq va haqiqat tomon da'vat etishda rahnamolik vazifasini bajaradilar.

Xulosa qilib aytganda, haqiqat keng qamrovli istiloh bo'lgani uchun, uni falsafiy-irfoniy talqin etishda interpretatsiya (nuqtayi nazar, maqsad, vazifa, bosqich, daraja, shakl, vosita, yo'l, usul, uslub, tahlil, tasnif, butun, qism nuqtayi nazaridan haqiqatni idrok etish), haqiqatni anglashning asosiy usullari ("ma'rifat", "e'tiqod", "sezgi", "vahiy", "ijodkorlik") bo'yicha fikrlar xilmalligi, irfoniy bilish xususiyatlarining o'ziga xosligi (o'z-o'zini takomillashtirishi, o'zini konsentrasiyalashi, muayyan holatga yo'naltirishi, introvertligi), haqiqat muammosining barcha masalalarida tushummovchiliklarning mavjudligi (konkretlik, nisbiylik va mutlaqlik, haqiqat mezonlari) yuzasidan aynan bitta nazariyani tatbiqetishning iloji siyo'q. Haqiqatni anglash mushkul bo'lmasanida, odamlar o'rtasida haqiqat talashish, dinlar, mazhablar, oqimlar o'rtasida ixtilof, tarafkashlik, shaklparastlik, murosasizliklarga o'r'in qolmagan bo'lar edi.

Orifning haqiqat haqidagi g'oyalarini uning konseptual yaxlitligi va aniq to'liqligiga yuklashga o'r'in yo'q. Shu bilan birga, bu qarash orifning haqiqat haqidagi bilimlarini inkor qilmaydi, aksincha, murakkablikdagi soddalikni, xaos (tartibsizlik)dagagi tartibni, tasodifdagizaruriyatni, o'tmishdagikelajakni determinik aniqlash orqali, haqiqatning irfoniy interpretatsiyasi yangi va yuqori bosqichlarda ilmiy-nazariy tadqiq etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Haqiqat barcha narsalarning ilmda zohir bo'lishi bilan, ilm barcha narsalarning haqiqatga aylanishi bilan izohlanadi. Bugungi kunda, barcha narsalar ilmiy asosda zohir bo'layotgan, ilm haqiqatga aylanayotgan jarayonda shaxs va jamiyatning tanlagan yo'li haqqoniy asosda belgilanishi tarixiy zaruriyatdir.

11 Эдвард де Бено. Параллельное мышление. Пер. с английского П.Самсонов. – М.: Полиурри, 2007. 312-стр.

12 Абдулқодир Гийлоний (Фавс ул-Аъзам). Раббонийликни англар ва раҳмоний файзи қозониш. I-китоб / Таржимонлар: Муҳаммаджон Нуриддин, Олимхон Юсуф, Аброр Абдулазиз, Абдулбоқи Азим. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. 112-бет.

aqliy-hissiy bilish o'rtasida joylashgan. Hissiy bilish to'liq bilish emas, beqarordir. Kattalashadigan va kichrayadigan ashyolar yolg'on, soxta bilim hosil qiladi. Haqiqiy idrok Haq birligiga singib ketgan. Haqiqiy bilish shuki, o'z holida qoyim va g'olibdir. Buni anglash uchun bilishning "takroriy", "tasdiqiy" va "tahqiqiy" xossalari bilish lozim.

Haqiqatga olib boruvchi bilishning "takroriy" xossasi sifatiy va miqdoriy bilish bo'lib, so'z va fikr orqali ifodalanadi. Bunda inson narsa-hodisalar mohiyatini tafakkur orqali biladi: "rasmiy" ma'rifat xuddi yozgi yomg'irga o'xshaydi, na bemorga shifo beradi, na chanqoqni qondiradi, ya'ni rasmiy bilim, quruq yodlash, qalbga muhrlanmagan bilim, tafakkursiz ibodat ilohiy haqiqatga olib bormaydi. Inson o'sish (aql)ning real dinamikasini yo'qotmagunicha turli mantiqiy asoslar to'planmasi bo'lgan ma'nosiz e'tiqod va marosimga amal qiladi.

Haqiqat ko'ngil (sir) bilan amal qilish, ya'ni haqiqat qalb ko'zi, "nurlanish", ma'naviy tafakkur orqali topilsa, qalb asosiy bilish quroli bo'ladi. Qalb birlik (ruh) va ko'plik (nafs) mamlakati o'rtasidagi chegarani belgilaydi. Nafs "men"lik, har qanday yovuzlik manbai bo'lsa, qalb ruh va nafs o'rtasidagi nur ko'rinishidagi substansiya bo'lib, "nafsi komila" holatidagi qalbga aylanadi. Qalb ruhning barcha tushunchalari va mukammalliklarini qamrab oladi. Qalb haqidagi bilimlar qalb bilan anglanadi. Bu bilimlar qidirib topilmaydi, aksincha, olyi dargohdan tuhfa etiladi<sup>6</sup>.

Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz" sharhida keltirilishicha, irfon va Haqni tanish ikki yo'l orgali tuyassar bo'ladi: birinchisi, asardan muassir (ta'sir o'tkazuvchi)ga, fe'ldan sifatga va sifatlardan Zotga (Haq zotiga) istidlol qilish orqali. Bu yo'l olimlarga xosdir. Ikkinchisi, ko'ngilni poklab tafakkurni (aqlni, fikrni) va shuningdek, ruhni, haqdan boshqa barcha narsalardan ajratish orqali. Bu yo'l

payg'ambarlar, nabiyalar, avliyolar va oriflarga xos yo'l: "Barcha oshkoru nihon U (Alloh) durkim, Haq ahlidan bo'lsang, hammasini faqat "Bir" deb bil".

Haqiqatning ikki darajasi bo'lib, birinchi darajasi, Haqni bilish (Allohnin ko'ringan sifatlar orqali bilish), ikkinchi darajasi Haqni anglash (Allohnin yagonaligini anglash)<sup>7</sup> dirki, unda insonning Haq taologa yaqinlik manzili (daraja, holi)ga kelishi, qalbining barcha nosozliklardan poklanishi (tanzih)<sup>8</sup> ro'y beradi, orifning "hikmatli so'zlari bilan o'lik qalblarni tiriltiradi"<sup>9</sup>.

Haqiqatni anglashning usullaridan biri "hayrat" bo'lib, Haqiqatni izlash mushkul, hech kim unga to'liq erisha olmaydi, o'z ornida hech kim uni umuman payqamasligi ham mumkin emas. Ammo har bir inson haqiqatni anglash uchun oz bo'lsa ham o'z hissasini qo'shadi, bu xissalar assotsiatsiyasi natijasida ulug'vor manzara paydo bo'ladi<sup>10</sup>.

Har bir narsaning ichki xususiyati (immanentligi) va tashqi aloqadorligi negizada har safar yangi va betakror muqobil yo'lni tanlash mujassam. Ratsional turmush tarzida yashaydigan bugungi kun kishisi hayotining har bir jarayonini nazorat qilishni hamda kelajakni oldindan ko'rishni istaydi. Mantiqiylik, aniqlik, avtomatlashtirish, oldindan rejalashtirishga odatlangan zamonaviy inson uchun barcha narsa-hodissa tushunarli va xavfdan xoli bo'lib ko'rindi. Xavfdan holilik inson imkoniyatining cheklanishiga olib keladi. Haqiqatan ham, hamma narsani nazorat qiladigan, har bir tiyinini hisob-kitob qiladigan, oldindan kerakli choralarini ko'rib, kelajakka zamin yaratib qo'yadigan inson Allohnin uning har bir xatti-harakatini kuzatib turgani va uning ertasi uchun qanday reja tuzib qo'yanini bilmaydi, Inson haqiqatni anglashi uchun ratsional tuzilgan reja ish bermaydi, insonning xudbinligi, kibri, o'z-o'ziga mahliyoligi uning haqiqat yo'lidan ancha tubanda ekanini ko'rishga

6 Шейх Ҳаким Мунинндин Чишти. Суфийское целительство. – Москва-Санкт-Петербург.: Диля, 2001. 178-стр.

7 Шайх ал-Калободий. Тасаввиф сарчашмаси / Арабчадан Отакул Мавлонқул ўғли ва Мавлуда Отакул қизи таржимаси. – Т.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. 112-бет.

8 Али ибн Усман аль-Джуллаби аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой для сведущих в тайнах сердец. (Кашф аль-мажхуб ли арбаб аль-кулуб) / Пер. с английского А.Орлова. Издание первое. – М.: Единство, 2004. 12, 187-бет.

9 Шайх Сайид Абдулқодир Гийлоний. Сиррул-асор. Мактубот / Таржимон, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муваллифи: О. Жўрабоев. Масъул муҳ: С.Ҳасанов, С.Рафиидинов. – Т.: Моварооннаҳр, 2005. 75-бет.

10 Сержило тафаккур дурданалари. Тузувчи ва таржимон А.Жалолов. – Т.: Наврӯз, 2003. 84-бет.